



NIMA SABABDAN ONA TILIDA TAHLILDA QIYNALAMIZ?

Madaminova Mohinabonu

O'zDJTU 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *ushbu maqolada ko'pchilik tahlilda yo'l qo'yadigan ayrim xatolar ko'rib chiqilgan. Shu bilan birgalikda qanday usulda oson tahlil qilish ham ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *abituriyent, talaba, sintaksis, kesim, ega, so'z birikmasi, so'roq, ibora, tilshunoslik, muammo, gap bo'laklari*

Tarixda biz uchun eng muhim voqealardan biri 1989-yil 21-oktyabrda “Davlat tili haqidagi” qonunning qabul qilinishi bo’lgan desak mubolag'a bo’lmaydi. Shu kundan e’tiboran bizning ona tilimiz - o’zbek tiliga bo’lgan hurmat-ehtirom yanada oshdi. Albatta, xalqimizning milliy g’ururi sanalmish o’z ona tilimizni jon-jahdi bilan himoya qilgan millatimizning asl qahramonlari: davlat arboblari, olim-u fuzalolar, shoir-u adiblarning sa’y-harakati natijasida ushbu tarixiy yutuqqa erishilgan. Nafaqat mazkur tarix sahifalaridan muhim o’rinni egallagan jarayonni eslash, balki, o’z ona tilimizni o’rganish, unga bo’lgan e’tiborni yanada kuchaytirish har bir O’zbekiston fuqarosing burchidir. Binobarin, manashu o'rinda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mazkur oltinga teng so’zlarini ta’kidlab o’tishimiz lozim: “Milliy o’zligimizning timsoli bo’lgan ma’naviyatimiz asosi bo’lgan ona tilimizga e’tibor yanada kuchaytiriladi. Albatta, oilamizda chet tilini bilish kerak, bu ham hozir zamon talabi, lekin ona tilini bilishga majbur qilishimiz kerak. Majbur!”. Prezidentimizning ushbu so’zlari biz yoshlarni ruhlantirishga xizmat qildi va ona tilimizga yanada yuqoriqoq mas’uliyat bilan qarashga undadi.

Hozirda rivojlanib borayotgan texnologik asrda yashayotgan ekanmiz, yoshlar o’rtasida ona tili ko’nikmalarini rivojlantirish va keng targ’ib qilish yanada osonlashdi. Ayniqsa davlat imtihoni uchun tayyorlanayotgan abituriyentda muhim ma’lumotlarni topish unchalik qiyinchilik tug’dirmaydi. Lekin ular tilshunoslik fanining grammatic muammolarga ya’ni tahliliy jarayonlarga duch kelishganda nimalar qilishadi? Bu o'rinda ularga tilshunoslik grammaticasi juda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilshunoslik fanida ko’proq tahliliy bo’limlardan sintaksis alohida o’rinni egallaydi. Sintaksis grek tilidan olingan bo’lib, “tuzish” degan ma’noni anglatadi. So’z birikmali va gaplarning qurilishi va ifoda xususiyatlarini o’rganuvchi til bo’limi sintaksis deyiladi. Lekin ushbu bo’limni tahlilida ko’pchilik muammolarga duch keladi. Xo’sh, bular qanday muammolar bo’lishi mumkin?

Hozirgi kundagi ko’plab o’quvchilarining dastlabki tahliliy xatolari shuki, ular tahlilni gapning boshidan boshlashadi. Bunday usul, albatta, gap tahlili oxirigacha turli xil tushunmovchiliklar, ikkilanishlarni keltirib chiqaradi. Shu bilan birgalikda bitta so’zning qanday gap bo’lagi vazifasida kelayotganini aniqlaguncha ancha vaqt



energiya talab qiladi. Ayniqsa, test jarayonida o'tirgan abituriyent yoki boshqa o'quvchi-yoshlar uchun eng qiyin usuldir.

Ikkinchidan, ko'pchilik yoshlarda kuzatiladigan xatoliklardan biri bu ular gapdagi so'z bog'lanishlariga e'tibor qaratishmaydi. Bilamizki, gapdagi so'zlarning vazifasini topish uchun u so'z bog'lanib kelgan boshqa bir so'zning vazifasining aniqligi ham birmuncha tahlilni osonlashtiradi. Chunki aniqlovchi va holni bir biridan ba'zi vaziyatlarda aniqlash birmuncha murakkab bo'lishi mumkin. Bunday holatda ular bog'lanib kelgan so'zga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Keyingi sabablaridan biri shundan iboratki, ba'zilar to'g'ri bog'lanib kelgan so'zni topishi mumkin lekin so'roq berishda adashishadi. To'g'ri bunday holat kamdan-kam vaziyatlarda kuzatiladi, lekin sabab sifatida keltirish mumkin. Chunki gap taribidagi har bir so'zning qanday gap bo'lagi vazifasida kelayotgnini aniqlashda so'roq asosiy ahamiyatga ega. Sababi har bir gap bo'lagi o'zining ma'lum bir so'rog'iga ega.

Yana bir tahlilda adashmovchiliklarni keltirib chiqaruvchi va ko'pchilikning asosiy xatolaridan biri iboralarni ajrata olmasliklari. Agar test jarayonida o'tirgan talaba yoki o'quvchi iborani ajrata olmasa, demak bitta butun boshli testdan ajralishi aniq. Talaba yoki o'quvchi tahlilni 100% to'g'ri tahlil qilgan bo'lishi mumkin, lekin birgina so'z birikmasiga o'xshash iboraga duch kelganda uni tushunmagan holatda alohida tahlil qilib qo'yishi mumkin va bu ularning katta xatosidir.

Asosiy masalamiz gapni qanday tahlil qilish deb olsak, biz gapning qanday qismlardan tashkil topganini dastlab ko'rib chiqaylik.

GAPNING QISMLARI

QO'SHIMCHA	YORDAMCHILAR	SO'Z	SO'Z BIRIKMASI

Bu yerdan bizga asosiy kerakli bo'lган qism bu- so'z birikmasi. Gapda so'zlar qanday bo'lak vazifasini bajarib kelayotganini ayni manashu so'z birikmasi yordamida aniqlaymiz. Masalani ko'rib chiqishda ushbu gapni misol tariqasida olamiz:

Har bir inson o'z vatani ravnaqi uchun qayg'uradi.

Dastlab bu gapdan biz kesimni aniqlab olishimiz darkor. Shundagina bzi so'z birikmasini ham, qolgan so'zlar qanday gap bo'laklari vazifasida kelayotganini aniqlashimiz mumkin. Demak biz dastlab kesimni aniqlasak, ushbu gapda QAYG'URADI so'zi kesim vazifasida kelyapti. Chunki nima qiladi? so'rog'iga javob bo'lmoqda. Endi bizning vazifamiz egani topish. Ega vazifasini bajargan so'zni OSON aniqlashning yo'li kesim orqalidir. Qayg'urayotgan nima? Gapga nazar tashlaganimizda ushbu so'roqqa faqatgina bitta so'z javob bo'lyapti: inson. Ega va kesimni topish orqali biz ega va kesim bog'lanishini aniqladik: inson qayg'uradi. Keyingi vazifamiz qolgan so'zlarning vazifasini aniqlash. Kesimdan bitta oldin joylashgan so'zga qaraymiz. "Uchun" so'zi ma'no anglatmaganligi tufayli yana oldingi so'zni qo'shamiz "ravnaqi uchun". Ushbu so'zni yana kesim bilan bog'laymiz



va so'roq beramiz "nima uchun qayg'uradi?" va savolga javob topamiz: "ravnaqi uchun". So'rog'i va ma'nosiga ko'ra to'ldiruvchi vazifasida kelyapti. Shu tariqa davom etamiz va "ravnaqi uchun" so'zidan oldingi so'zga e'tibor qaratamiz. "vatani" so'zini kesimga bog'lanib kelmaganligi sababli ravnaqi so'ziga bog'lab ko'ramiz. Demak so'zimiz gapda -ning qo'shimchasi yashirin holatda kelgan shu tufayli ushbu so'z aniqlovchi vazifasida kelgan. O'z so'zini olmosh so'z turkumiga oid bo'lib gapda qaysi so'rogg'iga javob bo'lib, aniqlovchi vazifasida kelmoqda. Shu bilan gapimizdagi so'nggi so'zimiz "har bir" ga qaraymiz. Ushbu so'z qaysi so'rogg'iga javob bo'lib, egaga bog'lanmoqda va aniqlovchi vazifasida kelyapti.

Demak yuqorida qilgan tahlilimizni umumlashtirib chiqamiz. Gapdag'i bog'lanishlar ya'ni so'z birikmalar:

1. Ravnaqi uchun qayg'uradi
2. Vatanining ravnaqi uchun
3. O'z vatanining
4. Har bir inson

Ega va kesimning bog'lanishi: inson qayg'uradi

To'diruvchi vazifasidagi so'z: ravnaqi uchun

Shu tariqa tahlilimiz o'z nihoyasiga yetdi.

Xulosa qilib aytganda, ona tilimizni chuqur o'rganish, uni to'g'ri targ'ib qilish har bir o'zbek farzandining vazifasidir. Shu sababdan unga qaratilgan e'tiborni kuchaytirish lozim. Garmmatikasini chuqur o'rganish lozim. Gap tahlil qilayotanda albatta yuqorida takidlab o'tilgan ba'zi bir xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun ko'pgina harakat va vaqt talab qiladi. O'ylaymanki, ushbu sohaning o'z mutasaddi va mutaxassislari ushbu sohani yanada takomillashtirishda yetarli darajada ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Matkariova D, Mamatqulova N, Mamatjanova N. Ona tilini o'rganamiz. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti – 2013.
2. M.Hamroyev. Ona tili, - T.:, "Sharq" nashriyoti. 2011
3. <https://www.gazeta.uz/2022/12/30/ona-tili/>